

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Sh. T.Axmadjonova	Interpretation of the study of speech styles in uzbek linguistics.....	983
Sh. T.Axmadjonova	A study on the characteristics and types of public speaking in english.....	986
Sh. Sh.Dadabayeva	Expression of comparative relation in language.....	990
N.X.Alieva	Evolution of new phraseological units in the era of digitization.....	997
I.M.Jo'rayev	Jadid adabiyotida oila va jamiyat taqdiri masalasi.....	1001
O.Q.Xasanova	Til o'rganuvchilarning xatolarini to'g'rilashda o'yinlardan foydalanishning didaktik ahamiyati.....	1005
И.Ф.Порубай	Рассмотрение языка сферы автоспорта как профессионального языка.....	1010
D. Sh.Rasulova, N.R.Gafurova	Gender study of forms of references in english languages.....	1019
N.R.Gafurova, O'.I.Xomidova	Linguistic and cultural analysis of lexemes expressing tradition in english and uzbek languages.....	1023
I.M.Qo'chqarov	Methods of teaching english.....	1028
N.Z.Axmadjonov	Nemis tili biznes nutqiy aktida kechirim so'rashning semiotik xususiyatlari (Elektron xatlar misolida).....	1031
Z.M.Xalilova	Tilshunoslikda "Oila/Family" konseptining o'rganilishi.....	1036
G.R.Tashmatova	Роль интеграции предметного содержания и иностранного языка в формировании иноязычной коммуникативной компетенции студентов высших учебных заведений.....	1040
Sh.A.Nuraliyeva	Navoiyshunoslik taraqqiyotida Oybek ijodining o'rni.....	1044
Z.M.Abdullayev	Antroponimlarning egalik shakllari bilan qo'llanilishining etnolingvistik xususiyatlari (O'zbek va Nemis tillari antroponimlari misolida).....	1047
N.Z.Axmadjonov	Nutq aktlari va ularning klassifikatsiyasi.....	1050
D.X.Madazizova	Badiiy va turistik-reklama diskursida kontaminatsiya imkoniyatlari.....	1055
R.U.Axrorova	«Yosh» tushunchasining lingvistik talqini.....	1059
R.U.Axrorova, L.B.Ikromova	Adabiy asarlarda maqollarning o'rni.....	1064
A.Mamatova	Nemis tilida frazemalarning turli ma'noda qo'llanilishi.....	1069
A.Mamatova	Nemis tilida frazemalarning milliy-madaniy xususiyatlarining nutqiy tasnifi.....	1074
Sh.O.Abdiloyev	Nemis va tojik tillarida frazeologik birliklarni tasniflash masalasi haqida.....	1078
N.Q.Adamboeva	Xushmuomalalik kategoriyasini aksiolingvistik jihatdan tasniflash nazariyasi.....	1083
T.Z.Mingboyeva	The effects of societal expectations on character development in Jack London's novels.....	1087
D.R.Ubaydullayeva, F.S.Abduvaliyeva	Omga oldida nutq qilishdagi qo'rquv sabablari va yechimlari.....	1091
R.A.Ortiqov	Роль и значение компьютерных игр в образовании.....	1095



UO'K: 811.12.297

NEMIS TILIDA FRAZEMALARNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARINING NUTQIY TASNIFI**РЕЧЕВАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА.****SPEECH CLASSIFICATION OF NATIONAL AND CULTURAL FEATURES OF PHRASEOLOGICAL UNITS OF THE GERMAN LANGUAGE.****Mamatova Anora**

Nemis va fransuz tillari kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada nemis tilida frazemalarning milliy-madaniy xususiyatlarining nutqiy ifodalanishi va lug'atlardagi tasnifi qisqacha tadqiq qilingan hamda misollar yordamida yoritilgan bo'lib, XX asrning so'nggi yillari hamda XXI asrning boshlariga kelib turli tillarda turlicha frazeologik lug'atlar chop etila boshladi. Bular o'z oidiga qo'ygan maqsad vazifalari, tanlab olingan frazeologik iboralar soni, ularning tarkibi, bir yoki ikki tilliligi, frazemalarning joylashish usullari va ularning talqini, funksional-stilistik tavsifi, ko'p ma'nolilik, sinonimik, antonimik, derivatsion xususiyatlarining berilishi va boshqa bir qator xususiyatlari bilan bir birlaridan farqlanishlari hamda frazeologik lug'atlar tipologiyasi prof. M.E Umarxo'jayevning "Osnovi frazeografi" nomli doktorlik ishining "Tipologiya frazeologicheskix slovary" nomli II bobida keng tahlil qilingan ilmiy-nazariy tadqiqotlar talqinidan foydalanilgan.

Аннотация

В статье кратко изучено и объяснено на примерах речевое выражение национально-культурных особенностей фразеологизмов в немецком языке и их классификация в словарях к последним годам XX и началу XXI века стали издаваться различные фразеологические словари на разных языках. Это поставленные перед собой задачи, количество выбранных фразеологических выражений, их состав, одноязычие или двуязычие, способы размещения фраз и их интерпретации, функционально-стилистическое описание, полисемия, синонимия, антонимия, деривационные особенности проф. Интерпретация широко проанализированных научно-теоретических исследований была использована во второй главе докторской диссертации М.Э. Умарходжаева «Основы фразеологии» под названием «Типология фразеологических словарей».

Abstract

In the article, the speech expression of the national-cultural features of idioms in the German language and their classification in dictionaries were briefly studied and explained with the help of examples. By the last years of the 20th century and the beginning of the 21st century, various phraseological dictionaries in different languages began to be published. These are the objectives set for themselves, the number of selected phraseological expressions, their composition, monolingualism or bilingualism, methods of placement of phrases and their interpretation, functional-stylistic description, polysemy, synonymy, antonymy, derivational features, prof. The interpretation of widely analyzed scientific and theoretical researches was used in Chapter II of M.E. Umarxojayev's doctoral thesis entitled "Osnovi frazeografi" entitled "Typologiya frazeologicheskikh slovary".

Kalit so'zlar: frazema, til birligi, his-hayajon, milliy-madaniy, nutq, frazeologiya, peremiologiya, fraza, statistik, ilmiy asarlar, badiiy asarlar, leksikografika, lug'at.

Ключевые слова: фразеология, языковые единицы, эмоция, национально-культурная, речь, фразеология, перемология, словосочетание, статистика, научные труды, художественные произведения, лексикография, словарь.

Key words: phraseology, linguistic units, emotion, national-cultural, speech, phraseology, phraseology, word combination, statistics, scientific works, works of art, lexicography, dictionary.

KIRISH

So'nggi yillarda tillardagi turg'un so'z birikmalari tadqiqiga munosabat o'zgargan, ular struktural-semantik jihatdan chuqur, har tomonlama o'rganilmoqda. Lekin shu bilan birga frazeologik iboralarning bir qator masalalari borki, ular hali-hanuz to'liq o'rganilmagan va maxsus

TILSHUNOSLIK

tadqiqot obyektiga aylanmagan. Ana shunday kam o'rganilgan obyektlardan biri frazeografiyaning ikki, ko'p tilli lug'atlar tuzish jarayonidagi frazemalar tarjimasini masalasidir[9]. Ushbu yo'nalishlar bo'yicha maxsus olib borilgan tadqiqotlar soni unchalik ko'p emas[3].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

So'nggi paytlarda leksikografiyaning mustaqil yo'nalishlari shakllanayotgani haqida I.G.Olshanskiy shunday degan edi: "Leksikografiyaning aspektlari tobora kengayib bormoqda ideografiya, frazeologiya, paremiologiya, ikki tilli (tarjima), jamoaviy, statistik, o'quv leksikografiyasi kabi jabhalari nazariy va amaliy faoliyatning nisbatan mustaqil yo'nalishiga aylanib bormoqda"[4]. Amaliy nuqtayi nazardan so'nggi yarim asrdan ko'proq davrda bir qator ikki va ko'p tilli frazeologik lug'atlar chop etilgan. Bular qatoriga dastavval L.E.Binovich tomonidan tuzilgan "Nemetsko-russkiy frazeologicheskiy slovar", (M., 1956), A.V.Kunin tomonidan tuzilgan "Anglo-russkiy frazeologicheskiy slovar", (M., 1967), I.Retsker tahriri ostida chop etilgan "Fransuzsko-russkiy frazeologicheskiy slovar", (M., 1963) hamda respublikamizda ilk bora prof. M.E.Umarxo'jayev va Q.N.Nazarovlar tomonidan tartib berilgan "Nemischa-ruscha-o'zbekcha frazeologik lug'at"larni kiritishimiz mumkin. Yuqorida ko'rsatilgan ikki tilli lug'atlar o'zlari qamrab olgan frazeologik iboralar ko'lami hamda ilmiy nuqtayi nazardan asosli lingvistik tahlillari orqali boshqa barcha lug'atlardan farqlanib turadi.

Ushbu o'rinda ta'kidlash lozimki, XX asrning so'nggi yillari hamda XXI asrning boshlariga kelib turli tillarda turlicha frazeologik lug'atlar chop etila boshladi[1]. Bular o'z oldiga qo'ygan maqsad vazifalari, tanlab olingan frazeologik iboralar soni, ularning tarkibi, bir yoki ikki tilliligi, frazemalarning joylashish usullari va ularning talqini, funksional-stilistik tavsifi, ko'p ma'nolilik, sinonimik, antonimik, derivatsion xususiyatlarining berilishi va boshqa bir qator xususiyatlari bilan bir birlaridan farqlanadilar. Frazeologik lug'atlar tipologiyasi prof. M.E.Umarxo'jayevning "Osnovi frazeografii" nomli doktorlik ishining "Tipologiya frazeologicheskiy slovarey" nomli II bobida keng tahlil qilingan[8].

NATIJA VA MUHOKAMA

Ko'rsatib o'tilgan lug'atlarning umumiy hamda farqli tomonlari prof. M.E.Umarxo'jayevning ilmiy-tadqiqot ishlarida keng yoritilganini inobatga olgan holda, biz yuqoridagi masalalarga batafsil to'xtamasdan, faqat tarjima lug'atlarida frazeologik iboralarining qaysi yo'l, usullar bilan bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilinishi haqida fikr yuritamiz. Tarjima masalalari asosan quyidagi yo'nalishlarda tadqiqot obyektiga aylangan:

Birinchidan, badiiy asarlar tarjimasini yo'nalishi;

Ikkinchidan, ilmiy asarlar tarjimasini yo'nalishi;

Uchinchidan, turli tarjima lug'atlari tuzish jarayonidagi tarjima yo'nalishi.

Birinchi yo'nalish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar mavjud bo'lib, ular tilshunoslik hamda adabiyotshunoslik hamkorligida amalga oshirilib kelinmoqda. Poeziya va prozaning o'ziga xos noyob xususiyatlari ushbu tarjima yo'nalishining shakllanishiga olib keldi. Ilmiy adabiyotlar tarjimasini masalasi ham o'ziga xos tomonlari bilan boshqa tarjima yo'nalishlaridan farq qiladi. Turli fan sohalariga taalluqli bo'lgan terminlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish masalasi hozirgi kunning eng dolzarb, shu bilan birga mas'uliyatli vazifasiga aylangan[10].

Uchinchi yo'nalish yuqorida ko'rsatib o'tilgan yo'nalishlar uchun asosiy "mehnat qurol" bo'lishiga qaramasdan, tarjimashunoslikning eng kam o'rganilgan sohalaridan biridir. Vaholanki, har taraflama ilmiy asoslangan tarjima lug'ati fanda yuqori baholanadi. Har qanday tarjima lug'atining amaliy ahamiyati, birinchidan, til birliklarining o'ziga xos semantik-struktur xususiyatlarini ikkinchi til birliklari yordamida to'liq ochish bilan belgilanadi. Ushbu o'rinda leksik lug'atlar tuzish tajribasidan keng foydalanish mumkin. Ikki tilli leksik lug'atlar ko'p asrlik amaliyotga ega bo'lib, ma'lum an'analar asosida shakllangan[10].

Ushbu o'rinda alohida ta'kidlash lozimki, so'nggi yarim asrdan ortiqroq davrda bir qator fundamental ilmiy tadqiqotlar natijalari lingvistik tarjima yo'nalishini shakllantirgan holda lug'atshunoslik amaliyotida keng qo'llanib kelinayotir. Ular haqida dissertatsiyaning birinchi bobida to'xtalib o'tganimiz sababli, bu masalaga yana alohida to'xtalishni lozim topmadik.

Ko'p asrlik frazeologik lug'atlar tuzish amaliyoti xamda frazeologiya va frazeografiyaning nazariy ma'lumotlariga asoslangan holda kelajakda tuziladigan ikki tili frazeologik lug'atlarni

takomillashtirish maqsadida frazemalarni tarjima qilish jarayonida quyidagi tamoyillarga e'tibor qaratilishi tavsiya etiladi:

Birinchi, nemis tilida qo'llanilayotgan frazemaning shakli, uning leksik, struktur va boshqa variantlariga e'tibor qaratilishi[10];

Ikkinchi, nemis tili frazemasining asosiy frazeologik ma'nosi, uning qo'shimcha nozik ma'nolari (semalari) hamda stilistik bo'yokdorligi diqqat markazida bo'lmog'i;

Uchinchi, ba'zi frazemalarning frazeologik ma'no turg'unligi, turli o'zgarishlarga moyilligi e'tiborda bo'lmog'i;

To'rtinchi, frazemalarni qanday holat va kontekstlarda qo'llash ma'qulligi aniqlanishi[10].

Ushbu tamoyillar nemis tili frazemasini doirasida amalga oshirilgandan so'ng ularni o'zbek tiliga tarjima qilish masalasi yechimiga o'tish mumkin. Yuqorida ta'kidlanganidek, dunyo frazeografiya amaliyotida frazemalar tarjimasini asosan quyidagi tamoyillar asosida amalga oshirib kelinmoqda.

1. To'liq ekvivalenti – muqobili mavjud bo'lgan frazeologik birliklar orqali tarjima qilish;
2. Qisman ekvivalenti mavjud bo'lgan frazemalar orqali tarjima qilish;
3. Ma'no jihatidan o'xshash, lekin turli obrazlar asosida shakllangan frazemalar orqali tarjima qilish;

4. Tanlab olinishi mumkin bo'lgan ekvivalentlar orqali tarjima qilish;

5. Umuman ekvivalenti mavjud bo'lmagan frazemalarni so'zma-so'z yoki izohli tarjima qilish.

Ushbu va boshqa usullari to'g'risida prof. M.E.Umarxo'jayevning "Ocherki po sovremennoy frazeografi"[7] kitobida batafsil to'xtalganligini inobatga olib, biz quyida frazemalarning tarjima jarayonida hisobga olish zarur bo'lgan boshqa xususiyatlarini yoritishga harakat qilamiz.

Bizning fikrimizcha, o'zga tillar frazemalarini boshqa tilga o'g'irishda, tadqiqotimizning birinchi va ikkinchi boblarida ta'kidlab o'tilganidek, ularga tilning nominativ birligi sifatida, tildagi leksik birliklar qatorida o'z mustaqil ma'nosiga, funksional-stilistik xususiyatlarga ega birliklar sifatida qaralmog'i darkor. Bundan tashqari frazeologik birliklar tildagi ikkilamchi nominativ birlik sifatida har bir xalqning milliy madaniyati, urf-odatlar, tarixi, o'z tili xususiyatlarini voqelantiruvchi til unsurlaridan biridir. Tarjima jarayonida aynan ushbu individual xususiyatlar tarjimasini diqqat markazida bo'lmog'i lozim. Alohida ta'kidlash lozimki, turli xalqlar turli joylarda yashashidan, turli tillarda gapirishidan qat'i nazar, ularni umumiy tushunchalar, qonuniyatlar birlashtirib turadi. Frazemalarni o'sha umumiy tushunchalar doirasidan kelib chiqib tarjima qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, har bir oilada ayollarning homilador bo'lishi, yangi farzandning dunyoga kelishi barcha katta quvonch bag'ishlaydi. Shu bilan birga ushbu fiziologik jarayon ma'lum ma'noda andisha va hayo pardasi bilan o'ralgan holda evfemik shakllar bilan bayon etiladi. Ushbu holatni ifodalash maqsadida nemis xalqi der Storch ya'ni laylak timsolidan keng foydalanadi. Nemis tilida bu holatlar uchun ~ Der Storch kommt zu j-m; ~ 'so'zma-so'z ~ 'kimnikigadir laylak kelyapti'; ~ der Storch ruft bei j-m ~ 'so'zma-so'z – kimnidir laylak chaqiryapti'; iboralari 'kimningdir oilasida yangi mehmon kutilyapti' frazeologik ma'nosida qo'llanib keladi. Ushbu o'rinda ~ Storch obrazi orqali qaysidir ayolningdir homilador ekanligiga ishora qiladi.

~ Der Storch beißt j-n ins Bein;

~ 'so'zma-so'z – kimningdir oyog'ini laylak tishlayapti' iborasida 'kimdir homilador bo'libdi' frazeologik ma'nosi mavjud. Shu tarzda frazemaning nemis tili kundalik muloqot doirasida ishlatilishi aniqlangandan so'ng, uning frazeologik varianti, ma'no ko'lami (bir ma'nolimi yoki ko'p ma'nolimi), omonim ma'nosi mavjudmi yoki yo'qmi, qanday sinonimlari mavjudligi aniqlanmog'i zarur[10].

Yuqoridagi iboralar aksariyat holatda nemis tilining kundalik muloqot doirasida qo'llanishi, ba'zi o'rinlarda ~ Storch ~ 'laylak' so'zi o'rniga ~ der Klapper ~ 'shaqildoq' so'zi almashtirib ishlatilishi, bir ma'noda qo'llanishi aniqlangandan so'ng o'zbek tilida ushbu holatni ifodalash uchun qanday leksik, frazeologik vositalar mavjud, ular qay tarzda nemischa iboraga muqobil bo'la olishi mumkin, degan savollarga javob izlash lozim[10].

XULOSA

Bizning fikrimizcha, ushbu iboralar dastlab leksik birlik orqali, so'ng o'zbek tili og'zaki nutqida keng iste'moldagi 'ikkiqat xotin', 'bo'yida bo'lmoq', 'yukli bo'lmoq', 'boshqorong'i', 'yangi mehmon kutilyapti', 'og'irbo'y', 'og'iroyoq', 'ko'zi yorimoq' kabi ekvivalentlar berilishi maqsadga

TILSHUNOSLIK

muvofiq bo'ladi. O'zbek tilidagi 'boshi qorong'i bo'lmoq' iborasi esa aynan homiladorlikning dastlabki haftalarini ta'kidlashi sababli, nemis tilidagi:

Der Storch beißt j-n ins Bein; ~ so'zma-so'z ~'kimningdir oyog'ini laylak tishlabdi' frazemasining ma'nosiga to'liq mos keladi. Bu birliklarning tillardagi ushbu ma'nolarini bilmagan foydalanuvchi uni shakllar asosida to'g'ridan to'g'ri tushunishi, ya'ni kimdir uyida o'tirib mehmon kutmoqda ekan yoki kimningdir oyog'ini bexosdan laylak tishlab olibdi ma'nosida tushunishi xatolik bo'ladi[10].

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Axrorova R.U. Fransuz va o'zbek tillarida yoshga oid leksik-semantik va frazeologik birliklarning lisoniy xususiyatlari. 2020. –B.98-102.
2. Ашукин Н.С. Ашукина М.Г. Крылатых слова Литературные цитаты, образные выражения. М., Изд-е 3, 1966, 824-с.
3. Беракула К.Т. Англо-украинский фразеологический словарь. Около 30 000 фразеологических выражения. – Кнеж, 1969, Баута А. и др. Русско-литванский фразеологический антарь, -I, Рига, 1974. Тi- 1974, 75%-стр. Т. 735-с.
4. Marta Sender. Einige kritische Bemerkungen zum deutsch-russischen phraseologischen Wörterbuch Fremdspracherunterricht, Jahrgang 1957. –S.634-640.
5. Ольшанский И.Г. Некоторых тенденциях современной немецкой лексикографии Иностранные языки в школе, 1977, X 6. –С.21.
6. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг қисқача фризесімгик луғати, Т., 1964 –В.212.
7. Сарикова М. Русско-узбекский фразеологический словарь, Т., 1972; –С.192.
8. Умарходжаев М.Э. Очерки по современной фразеографии. Фан, Т., 1977. –С.133.
9. Умарходжаев М. Основы фразеографии. Автореф: дисс. докт. фил. наук., М., 1981, –С.97-174.
10. Умарходжаев М.И. Вететкungen Phraseologischen Forschung in der UdSSR Sprachpflege, 1972, No 4, – S.85.
11. Юсуфжонова Ш.М. Немис ва ўзбек тилларидаги фразеологик ибораларнинг миллий – маданий хусусиятлари ва таржима муаммолари. Диссертация, 2022. –Б.68-104.